O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI
SAMARKAND BRANCH OF TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
TDIU SF

“O‘ZBEKISTONDA MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARINI JORIY ETISH TENDENSIYALARI”

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA

ILMIY MAQOLALAR TO‘PLAMI

22–23 MAY 2026 YIL



Tashkiliy qo‘mita a’zolari:

Murtazaev Olim
Tashkiliy qo‘mita raisi, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali direktori, i.f.d., professor

G'aniyev Ibragim Mamadiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali o‘quv ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.n., dotsent

Abdullayev Zafar Xasanovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, i.f.f.d. PhD, dotsent

Taniyev Ahmadjon Bahromovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va moliya” fakulteti dekani, i.f.d., professor

Abduvohidov Sunatillo Abdinabiyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig’i

Mardonov Mamed Shavkatovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi mudiri, PhD.,dotsent

Xikmatov Xakimxon Xamzaevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, i.f.n

Rabbimov Elbek Abdulloyevich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi dotsenti, PhD.

“O’zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plami. Samarqand. TDIU SF, 2026 yil**.**

Nashr uchun mas’ul: M.Sh.Mardonov -PhD.,dotsent

Tahririyat hay’ati raisi:
O. Murtazayev - i.f.d, professor

Tahririyat hay’ati a’zolari:

Z.X. Abdullayev	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
M.Sh.Mardonov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent
N.Xalilov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.X.Xikmatov	iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
X.Ibayev	iqtisodiyot fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi
E.A.Rabbimov	iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

Texnik muharirlar:

U.T.Umirov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
N.A.Narzullayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
B.A.Mirzayev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
I.I.G‘afforov	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
O.F.Ergashev	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

A.B.Taniyev	iqtisodiyot fanlari doktori, professor
K.B. Urazov	iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ushbu to‘plamga 2026 yil 22-23 may kunlari Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filialida “O‘zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish tendensiyalari” mavzusida o‘tkazilgan Respublika ilmiy-amaliy anjuman qatnashchilarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Ushbu to‘plam OTM professor-o‘qituvchilari, doktarant va mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar shuningdek iqtisodiyotning turli tarmoqlarida faoliyat yuritayotgan iqtisodchi hamda amaliyotchi buxgalterlar uchun mo‘ljallangan. Maqolalar mualliflar tahririda bosilgan. Ularda keltirilgan, raqamlar, faktlar, xulosa va tavsiyalarga mualliflar mas’ul. Ularning ayrim fikrlari tashkiliy guruh qarashlariga to‘g‘ri kelmasligi mumkin.

I SHO‘BA. Moliyaviy hisobni tashkil etish va xalqaro standartlar prinsiplarini qo'llash		
1.	**QISHLOQ XO'JALIK KORXONALARINI BOSHQARUV HISOBI XUSUSIYATLARI: GERMANIYA MISOLIDA (IAS 41 ASOSIDA)** *Mardonov M.Sh.*	13
2.	**BUXGALTERIYA HISOBINING XALQARO STANDART — 41 "QISHLOQ XO'JALIGI"NING QO'LLANILISHIDA YUZAGA KELGAN MUAMMOLAR** *Abdullayev Z.H.*	17
3.	**ASOSIY VOSITLARGA QILINADIGAN XARAJATLAR VA ULARNING QADRSIZLANISHINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH** *Nematova Dilnoza Azamatovna*	25
4.	**MOLIYAVIY HISOBOTNING 18-XALQARO STANDARTIDAGI O‘ZGARISHLAR VA ULARNING O‘ZBEKISTON MOLIYAVIY HISOBOTIGA TA‘SIRI** *M.Sh.Ergasheva*	34
5.	**CHORVACHILIK FAOLIYATIDA XARAJATLAR HISOBI VA MAHSULOTLAR TANNARXINI HISOBLASH USLUBIYOTI** *Mardonov Mamed Shavkatovich*	39
6.	**QO‘SHIB YUBORILAYOTGAN KORXONALAR FAOLIYATINI TUGATISH JARAYONLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TASHKIL QILISH MASALALARI** *Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li*	43
7.	**AVTOMAKTABLARDA ASOSIY VOSITALARNI BAHOLASH VA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH (“Charxin Avto maktab” MChJ misolida)** *Narzullayev Nodir Aziz o‘g‘li, Mirzayev Behzod Abdug’ofur o‘g‘li, G’offorov Ilhonjon Ilyosjonovich, Narziqulov Oybek Mashxurbek o‘g‘li*	50
8.	**TANNARX BUXGALTERIYA HISOBIGA ZAMONAVIY TA’RIF** *Dilfuza Tashnazarova*	57
9.	**SAVDODA BUXGALTERIYA HISOBINING MUHIM VAZIFALARI** *Umarov Javohir*	62
10.	**XALQARO MOLIYAVIY HISOBOT STANDARTLARI ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBNI TASHKIL ETISH MASALALARI** *Umirov Ulug‘bek Tayirbayevich*	66
11.	**RAQAMLI IQTISODIYOTDA ELEKTRON TIJORAT (ONLAYN SAVDO) SUBYEKTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI MILLIY VA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH** *Mirzayev Behzod Abdug'ofur o'g'li, G’offorov Ilhomjon Ilyosjonovich, Baxronova Farnangiz*	77

QO‘SHIB YUBORILAYOTGAN KORXONALAR FAOLIYATINI TUGATISH JARAYONLARINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA HISOB VA HISOBOTDA AKS ETTIRISHNI TASHKIL QILISH MASALALARI

Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug‘li
SamISI tayanch doktoranti
e-mail: jamshidbek.abdurasulov@mail.ru
ORCID: 0000-0003-1630-86940

Annotatsiya. *Mazkur maqolada korxonalarni qo‘shib yuborish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Biznes birlashuvlarida aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash, gudvill hamda hariddan kelgan foydani hisobga olishning ahamiyati asoslab berilgan. Shuningdek, milliy va xalqaro standartlar o‘rtasidagi farqlar tahlil qilinib, hisob amaliyotini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *biznes birlashuvi, qo‘shib yuborish, MHXS, buxgalteriya hisobi, gudvill, moliyaviy hisobot.*

Annotatsiya. *В данной статье исследованы вопросы отражения процессов слияния предприятий в бухгалтерском учёте и финансовой отчётности на основе международных стандартов. Обоснована необходимость оценки активов и обязательств по справедливой стоимости, а также значение учёта гудвилла и прибыли от приобретения. Кроме того, проведён анализ различий между natsіональными и международными стандартами и разработаны предложения по совершенствованию учётной практики.*

Ключевые слова: *объединение бизнеса, слияние, МСФО, бухгалтерский учёт, гудвилл, финансовая отчётность.*

Annotation. *This article examines the issues of reflecting enterprise merger processes in accounting and financial reporting based on International Financial Reporting Standards (IFRS). The importance of measuring assets and liabilities at fair value, as well as accounting for goodwill and gain from acquisition, is substantiated. In addition, differences between national and international standards are analyzed, and proposals for improving accounting practices are developed.*

Keyvords: *business combination, merger, IFRS, accounting, goodwill, financial reporting.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarning strategik o‘sishi va raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan muhim iqtisodiy jarayonlardan biri korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olishdir, boshqacha nom bilan aytganda biznes birlashuvidir. Uning mohiyati turli xo‘jalik sub’ektlarining resurslari, kapitallari va boshqaruv tizimini birlashtirish orqali yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishishdan iborat. Fikrimizcha, biznes birlashuvi korxonalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, iqtisodiy masshtab samarasini yaratadi va investitsion jozibadorlikni oshiradi. Investitsion jozibadorlik esa mamlakat yoki alohida korxonaning ichki va tashqi investorlar uchun qanchalik foydali va ishonchli ekanligini ifodalovchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Ushbu jarayonlar mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar bilan bevosita uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida iqtisodiy barqaror o‘sishni ta’minlash, xususiy sektor ulushini oshirish, investitsion jozibadorlikni kuchaytirish hamda korporativ boshqaruvni takomillashtirish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Bu vazifalarni samarali amalga oshirishda biznes birlashuvlari muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi[6].

Dunyo miqyosidagi statistik ma’lumotlarga ko‘ra, jahon iqtisodiyotida biznes birlashuvlari va qo‘shib olish (M&A mergers and acquisitions) jarayonlari so‘nggi o‘n yillikda iqtisodiy integratsiya va kapital bozorining faolligida muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda. MAA operatsiyalari yirik transmilliy korporatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi va ular global iqtisodiy rivojlanish, investitsiya oqimi va raqobat muhitining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib xizmat qiladi. 2015-yildan boshlab jahonda birlashuv va qo‘shib olish operatsiyalari umumiy qiymati taxminan 3,8 trillion AQSH dollarini tashkil etgan. Bu davrda bozordagi faoliyat asosan energetika, moliya va texnologiya sohalarida jadal kechgan bo‘lib, 2016-yilda bu ko‘rsatkich 3,5 trillion dollarga pasaygan, bunga Buyuk Britaniyaning Brexit jarayonlari va AQShdagi siyosiy o‘zgarishlar ta’sir ko‘rsatgan. 2017-2018-yillarda jahon M&A bozorida o‘sish kuzatildi. Xususan, 2017-yilda umumiy qiymat 3,7 trillion dollar, 2018-yilda esa 4,0 trillion dollarga yetdi. Bu yillarda Yevropa va Amerika bozorlarida yirik texnologik birlashuvlar, shuningdek, farmatsevtika va moliyaviy xizmatlar sohalarida faoliyat yuqori bo‘lgan. 2019-yilda esa bozor biroz pasayib, 3,9 trillion dollar atrofida bo‘lgan.

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. 2026-yil 16-fevral. PF-21-son.

Shu bilan birga, rivojlanayotgan mamlakatlarda ayniqsa Osiyo mintaqasida ichki kapital qo‘shilish va birlashuvlar soni ko‘paygan. 2020-yilda pandemiya ta’siri natijasida global iqtisodiy faoliyat pasayib, M&A bozorida ham jiddiy inqiroz kuzatildi. Ushbu yilda operatsiyalar qiymati 2,8 trillion dollarga tushdi.



1-rasm. “Jahon bo‘yicha M&A (birlashuv va qo‘shib olish) bozori statistik ma’lumotlari (2015–2025)”

Bu oxirgi 10 yillikdagi eng past ko‘rsatkichlardan biri bo‘ldi. Biroq, 2021-yilda pandemiyadan keyingi iqtisodiy tiklanish bilan bir vaqtda M&A bozori tarixiy rekord darajaga yetdi va jahon bo‘yicha umumiy qiymat 5,1 trillion dollarni tashkil qildi. Bu yilda asosiy o‘sish AKT, biotexnologiya va moliyaviy texnologiyalar sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan. 2022-yilda global iqtisoddagi inflyatsiya bosimi, foiz stavkalarining oshishi va geosiyosiy noaniqliklar ta’sirida birlashuvlar qisman pasaydi. Bu yilda umumiy qiymat 4,5 trillion dollar bo‘lgan. 2024-yilda global iqtisodda barqarorlikning qayta tiklanishi hisobiga M&A bozorida o‘sish qayta boshlandi va umumiy operatsiyalar qiymati 3,4 trillion dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkich bozordagi ehtimoliy barqarorlik tendensiyasini namoyon etdi[7]. 2025-yilning dastlabki 9 oyi bo‘yicha ma’lumotlarga ko‘ra, jahonda birlashuv va qo‘shib olish operatsiyalarining umumiy qiymati 1,94 trillion dollarni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning shu davriga nisbatan taxminan 10% o‘sishni ifodalaydi. Boston Consulting Group (BCG) va McKinsey ma’lumotlariga ko‘ra, mazkur o‘sish asosan AQSH va Yevropa bozorlaridagi texnologik va energiya sektoridagi yirik bitimlar hisobiga ta’minlangan(1-jadval).

[7] McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma’lumotlar bazasidan olindi.

Umuman olganda, 2015–2025-yillar mobaynida jahondagi birlashuv va qo‘shib olish operatsiyalarining umumiy dinamikasi o‘zgaruvchan bo‘lgan bo‘lsa-da, umumiy tendensiya yuqori faollikka ega. Bu holat global biznes muhitida raqobatning kuchayishi, kapital qiymatini oshirish va moliyaviy samaradorlikka erishish maqsadida qo‘shilish jarayonlarining tobora ahamiyat kasb etayotganligini ko‘rsatadi[8].

1-jadval.

2015–2025 yillar davomida jahonda amalga oshirilgan biznes birlashuvlari va qo‘shib olish (M&A) operatsiyalarining umumiy qiymati[9]

Yillar kesimida	M&A qiymati (trln AQSH dollari)
2015	3.8
2016	3.5
2017	3.7
2018	4.0
2019	3.9
2020	2.8
2021	5.1
2022	4.5
2023	3.2
2024	3.4
2025 (9 oylik ma’lumot)	1.94

Yuqoridagi ma’lumotlar xalqaro manbalar asosida tuzilgan bo‘lib, bozor tendensiyalarining yillik dinamikasini ifodalaydi(1-jadval)[10]. Olib borilgan tadqiqlardan xulosa etish mumkinki, O‘zbekistonda korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari (M&A) so‘nggi besh yil ichida iqtisodiy faoliyatning muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda. Hukumat tomonidan iqtisodiyotni liberallashtirish, xususiy sektor ulushini oshirish va davlat aktivlarini xususiylashtirish jarayonlari faollashgani sababli iqtisodiy konsentratsiya bilan bog‘liq bitimlar soni va qiymati yil sayin ortib bormoqda. Shunday qilib, korxonalarni qo‘shib yuborish va qo‘shib olish jarayonlari O‘zbekiston iqtisodiyotidagi raqobatni kuchaytiruvchi, investitsion muhitni yaxshilaydigan va iqtisodiy samaradorlikni oshiradigan asosiy vositaga aylanib

[8] McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma’lumotlar bazasidan olindi.
[9] McKinsey & Company: Global M&A Trends Report (2024–2025)ning ochik ma’lumotlar bazasidan olindi
[10] McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma’lumotlari asosida tuzildi.

bormoqda va xalqaro miqyosdagi bu ma’lumotlar qo‘shib yuborilayotgan va qo‘shib olinayotgan korxonalarning hisob va hisobot tizimini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, gudvill va hariddan kelgan foydani hisobda aks ettirish mexanizmlarini ilmiy asoslash zarurligini yana bir bor tasdiqlaydi[11]. Qo‘shib yuborilayotgan korxonalar faoliyatini tugatish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish tizimini takomillashtirish iqtisodiyotdagi moliyaviy boshqaruvni ilmiy asoslash, hisobotlarning xalqaro darajada tan olinishini ta’minlash va korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Gudvill va hariddan kelgan foyda tushunchalari bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni qayta tashkil etish va biznes birlashuvi jarayonlarining muhim iqtisodiy kategoriyalari hisoblanadi. Ularning mohiyati korxonalarning bozor qiymatini to‘g‘ri baholash, moliyaviy samaradorlikni aniqlash va investorlar uchun ishonchli axborot yaratishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, biznes birlashuvi natijasida aktivlar tuzilishi va moliyaviy natijalarning shaffofligi yaxshilanadi, boshqaruv tizimining samaradorligi oshadi, bu esa investorlar ishonchini kuchaytiradi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), xususan MHXS 3 “Biznes birlashuvlari” standartida qayd etilganidek, biznes birlashuvi jarayonida kompaniya aktivlari va majburiyatlari adolatli qiymat asosida qayta baholanishi lozim. Bu esa korxona haqiqiy bozor qiymatini to‘g‘ri aks ettirishga va hisobotning ishonchliligini ta’minlashga xizmat qiladi. Biznes birlashuvi jarayonida shakllanadigan gudvill kompaniyaning noaniq aktivlari, bozordagi obro‘si, mijozlar bazasi va brend qiymatining moliyaviy ifodasidir. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, gudvill mavjud bo‘lgan kompaniyalar, odatda, investorlar uchun yuqori investitsion jozibadorlikka ega bo‘ladi. Bu holat kompaniyaning bozordagi raqobat ustunligini ifodalaydi va kapital bozorlarida uning aksiyalariga yoki ulushlariga bo‘lgan talabni oshiradi. Chunonchi, investitsion muhit nuqtai nazaridan, biznes birlashuvi mamlakat iqtisodiyotidagi islohotlarni rag‘batlantiradi. Birlashgan yangi kompaniyalar ko‘p hollarda zamonaviy korporativ boshqaruv tizimlarini, xalqaro hisobot standartlarini amaliyotlarini joriy etadi. Bu esa iqtisodiy muhitdagi shaffoflik va hisobdorlik darajasini oshirib, tashqi investorlar uchun ishonch, xavfsizlik va barqarorlik muhitini yaratadi. Natijada, biznes birlashuvi iqtisodiyotda quyidagi rasmda keltirilgan ijobiy o‘zgarishlar kuzatiladi. Fikrimizcha, biznes birlashuvi

[11] McKinsey & Company (2025), Boston Consulting Group (BCG, 2025), IMAA Institute ma’lumotlari asosida tuzildi.

investitsion muhitga faqat iqtisodiy emas, balki psixologik ta’sir ham ko‘rsatadi. Birlashgan korxonalar faoliyatidagi shaffof hisobot, barqaror foydalilik va xalqaro auditorlik standartlariga mos amaliy faoliyat investorlar ongida ishonch uyg‘otadi.

Biznes birlashuvi natijasida yuzaga kelgan yirik va barqaror korxonalar nafaqat iqtisodiyot, balki mintaqaviy va xalqaro bozorlar uchun ham muhim investor sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa mamlakatning umumiy investitsion jozibadorligini oshirish, chet el sarmoyalarini jalb etish hamda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini barqarorlashtirishda hal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Biznes birlashuvi investitsion muhitni shakllantirishda ikki yo‘nalishda ya’ni iqtisodiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, korxonalarni qo‘shib yuborish jarayonlarini xalqaro standartlar asosida hisob va hisobotda aks ettirish moliyaviy axborotning shaffofligi, ishonchliligi va taqqoslanuvchanligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, biznes birlashuvlarini hisobga olishda aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash, gudvill va hariddan kelgan foydani alohida hisob ob’ektlari sifatida aks ettirish moliyaviy natijalarning haqqoniyligini ta’minlaydi.

Shuningdek, biznes birlashuvlarini hisobga olishda MHXS 3 “Biznes birlashuvlari” standarti talablarini milliy amaliyotga bosqichma-bosqich joriy etish, aktiv va majburiyatlarni adolatli qiymat asosida baholash tizimini takomillashtirish hamda konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlarni raqamli texnologiyalar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu esa korxonalarning investitsion jozibadorligini oshirish, investorlar uchun ishonchli axborot muhitini yaratish va moliyaviy hisobot sifatini xalqaro darajaga olib chiqish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24 fevraldagi PQ–4611-son “Buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF–21-son “Mamlakat taraqqiyotining 2030 yilgacha mo‘ljallangan ustuvor yo‘nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2016.

4. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (IFRS/IAS). – London: IFRS Foundation, amaldagi nashr.

5. IFRS 3 “Business Combinations”. – London: IFRS Foundation.

6. IFRS 10 “Consolidated Financial Statements”. – London: IFRS Foundation.

7. IFRS 13 “Fair Value Measurement”. – London: IFRS Foundation.

8. BHMS №23 “Qayta tashkil etishni amalga oshirishda moliyaviy hisobotni shakllantirish”.

9. BHMS №8 “Konsolidatsiyalashgan moliyaviy hisobotlar va sho‘’ba xo‘jalik jamiyatlariga investitsiyalar”.

10. Plotnikov V.S., Plotnikova O.V. Obedineniye biznesa i konsolidirovannaya finansovaya otchetnost. – Moskva: Finansy i statistika, 2019.

Bosishga ruxsat etildi 13. 06. 2026 yil.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16-
Times New Roman garniturasi.
Shartli hisob tabog'i - 35,69. Nashriyot hisob tabog‘i - 16,0
Adadi 30 nusxa. Buyurtma № 04/04

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazida chop etildi.
Samarqand sh., Mirzo Ulug'bek k., 77
Tel. 93 359 70 98